



## QADRIYAT TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA UNING KLASSIFIKATSIYALASH

Madraximov Jahongir

Namangan davlat universiteti,  
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi  
yo'nalishi MIG'-AU-21 guruh talabasi  
madrakhimovjakhongir@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.13253357>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-March 2024 yil  
Ma'qullandi: 25- March 2024 yil  
Nashr qilindi: 30- March 2024 yil

### KEYWORDS

qadriyatlar, mohiyat,  
klassifikatsiya, falsafiy tahlil,  
tarixiy jihatlar, ijtimoiy jihatlar,  
jamiyat, shaxsiy hayot.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada qadriyat tushunchasi, uning mohiyati va klassifikatsiyalash usullari tahlil qilinadi. Qadriyatlarining falsafiy, tarixiy va ijtimoiy jihatlari ko'rib chiqilib, ularning umumiy klassifikatsiyasi taklif etiladi. Tadqiqot qadriyatlarining jamiyat va shaxsiy hayotdagi o'rnini aniqlash uchun mo'ljallangan.*

Qadriyatlar inson hayotining muhim qismlaridan biri bo'lib, ularning shakllanishi va rivojlanishi jamiyat va shaxsiy hayotda katta ahamiyat kasb etadi. Bu qadriyatlar inson faoliyatining me'zonlari va unda amalga oshiriladigan harakatlarni belgilaydi. Qadriyatlarining mohiyati va klassifikatsiyasi masalalari falsafiy, tarixiy va ijtimoiy nuqtai nazarlardan o'rganilishi zarur. Ushbu maqolada qadriyat tushunchasi, uning mohiyati va klassifikatsiyalash usullari tahlil qilinadi.

**Metodlar:** Ushbu tadqiqotda adabiyot tahlili, falsafiy tahlil va empirik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Qadriyatlarining ta'riflari, ularning turli tarixiy davrdagi shakllanishi va zamonaviy jamiyatdagi o'rnini o'rganildi.

**Natijalar:** Bugungi kunda yangilanayotgan jamiyatimiz hayotida amalga oshirilib kelinayotgan tub islohotlarning asosiy maqsadi – inson va uning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan. So'ngi yillar davomida mamlakatimizda O'zbekiston taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar tufayli fuqarolarimiz va xalqimiz hayotida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda, ularning dunyoqarashi, ongu – tafakkuri yuksalmoqda. Ushbu jarayonlarda jamiyatimizda yangicha qadriyat va an'analar shakllanmoqda. Davlatimiz rahbari xalqimizning ma'naviy qadriyatlariga ehtirom bilan munosabatda bo'lish, muqaddas dinimiz, an'ana va urf – odatlarimiz, bebaho tarixiy merosimizni saqlab qolish va rivojlantirishni davlat siyosati darajasida baholab kelmoqda. Ushbu islohotlarni amalga oshirish jarayonida esa jamiyatimizning boy milliy va ma'naviy qadriyatlari beqiyos o'rin egallaydi. Chunki, qadriyatlar yashasa millat yashaydi. Millat esa ma'naviy – axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlikda shakllanadi va rivoj topadi.

Bugungi kunga kelib, zaminimizda yashayotgan barcha fuqarolar, jumladan, barcha millat, elat va din vakillari hayotida yangi davr, ya'ni, yangilanayotgan mustaqil O'zbekistonning "milliy tiklanishdan – milliy yuksalish" g'oyasiga asoslangan yangi qadriyatlar tizimini shakllantirish

davri boshlandi. Bu davrda, ma'naviy – axloqiy, diniy, umuminsoniy, iqtisodiy va boshqa qadriyatlarining dialektik uyg'unligiga erishish g'oyat zarur hisoblanadi. Kelajagi buyuk bo'lishni istagan har bir xalq o'tmishda ota – bobolaridan qolgan qadriyatlarni asrab – avaylab rivojlantirmog'i lozim. Hozirgi davrda, shukurlar bo'lsinki, mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik, hamjihatlik, tez sur'atli rivojlanish hukm surayotgan bir paytda jamiyatimizning barcha jabhalarida ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning barchasi, buyuk tarixga ega bo'lgan qadriyatlar ustunligidandir, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

So'nggi yillar mobaynida nafaqat ijtimoiy fanlar ilmda, balki, jamiyat va ilm – fanning barcha jabhalarida “qadriyat” kategoriyasining mazmun va mohiyatini ochib beruvchi tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda, u haqida yangicha yondashuv, qarash va fikrlar ilgari surilmoqda.

“Moziyga qaytib ish ko'rmoq hayrlidir”, deb yozgan edi ulug' adibimiz Abdulla Qodiriy “O'tkan kunlar” romanida. Demak, “Qadriyat o'zi nima?” degan savolga javob berishdan oldin mavzuning tarixini, qisqacha bo'lsada yoritib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qadriyatlar ilmining tarixi, ildizlari va kishilik jamiyatiga hos qadrlash tamoyillari shakllanishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. G'arb olimlari bu borada, asosan, Yunon va Yevropa madaniy merosi va g'oyalari suyanadilar, ko'plab allomalarning nomlarini tilga oladilar. Bulardan, Suqrot, Aflotun, Sitseron, Arastu va J.Lokk, I.Kant kabilar o'z asarlarida alohida e'tibor bergan. Masalan, Platon shaxsning axloqiy qarashlari haqida shunday deydi, “kishilar ezgulik, adolat, erkinlik, axloqiy qadriyatlar qaror topgan hayotga intilar ekanlar, bu borada bildirilgan g'oyalarni (hatto ularning o'z davriga va tuzumiga to'g'ri kelish yoki kelmasligi haqida o'ylamay, tanqidiy o'zlashtirmay) ideal fikr, andoza, hatto bashorat deb qabul qilishga moyil bo'ladilar”<sup>1</sup>.

Yunon faylasufi va axloqshunoslikning otasi hisoblanmish Aristotel ham qadriyatlar haqida juda ko'p ma'lumotlar qoldirgan. Jumladan, u, “eng buyuk qadriyat bu xalq ozodligidir”, degan iborani ishonchli dalillar bilan tushuntirib o'tgan. Aristoteldan ta'lim olgan tarixiy shaxs hisoblanmish buyuk sarkarda va davlat arbobi Aleksandr Makedonskiy shunday deydi “Men Arastuni otam qatori hurmatlayman, chunki otam menga hayot bergan bo'lsa, Arastu esa hayot qadriyatlarini berdi”, degan ekan<sup>2</sup>.

Sitseronning fikriga muvofiq esa, “gumanizm odamning inson darajasiga kutarilishi va insonda insoniylik alomatlarining mujassamlashishi jarayonini ifodalovchi iboradir”. Sitseron ushbu ibora yordamida insonning eng buyuk qadriyat ekanligini ta'kidlaydi<sup>3</sup>.

J.Lokk qadrli narsalarni ikkiga ajratadi: birinchisini tabiat beradi, uni inson tabiatdan tayyor holda oladi; ikkinchisini esa inson mehnati, xatti – harakatlari orqali yaratadi. Faylasufning fikriga ko'ra, inson mehnati bilan yaratgan narsalar biz uchun qadrliroqdir.<sup>4</sup>

Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, qadriyatlar falsafasining shakllanishiga I.Kant katta hissa qo'shgan. Uning, har qanday ongli mavjudot o'zi o'ziga maqsaddir, degan g'oyasi negizida insonga vosita emas, oliy qadriyat sifatida qarash zarur, degan fikr yotadi. Qolgan barcha narsalar, inson mayli, istagi, qiziqishi tufayli “nisbiy qadrga egadir”. Nisbiy qadrga ega bo'lgani uchun ular “narsalar” deb ataladi va inson ehtiyojlarini qondiruvchi vositalardir.

<sup>1</sup> G'arb falsafasi (Q.Nazarov tahriri ostida). T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti “sharq” 2004. –

A'lam va Urfon Otajon). –T.: Yangi asr avlodi,2015. –B.6-231.

Farb falsafasi (Q.Nazarov tahriri ostida). T.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти “шарк” 2004. –Б.146.

<sup>4</sup> Каранг: Локк Дж. Сочинения в трех томах. Т.3. – М.: Мысл, 1988. –С.286.

Ongli mavjudotlar “shaxslar” deb ataladi, chunki ular sub’ektiv qadriyatlarga egadir. Bu bilan Kant falsafaga “absolyut qadriyat” kategoriyasini ham olib kirdi<sup>5</sup>.

Bu mavzuning G’arb falsafasida o’z tarixiga ega ekanligiga shubha qilmaymiz. Ammo Sharq diyori, jumladan, O’zbekiston uchun ham qadriyatlar muommosi begona emas, albatta. O’z nomlarini tariximizga abadiy muhrlab ketgan Xorazmiy, Forobiy, Buxoriy, Termiziy, Beruniy, [Ibn Sino](#), Najmiddin Kubro, Yassaviy, Navoiy, Mashrab, Bedil, Behbudiy, Avloniy va yana ko’plab ajdodlarimiz me’rosi va ijodida ham bu mavzuning izlari bor hamda teran qirralari ochib berilgan.

O’sha davrning buyuk mutafakkirlaridan biri, alloma Abu Nasr Forobiy ham qadriyatlarga katta e’tibor bergan. Uning qadriyatlar to’g’risidagi fikrlarini “Madina al – fozila” ta’limotida yaqqol kuzatish mumkin. Qomusiy olim sifatida Forobiy fozil jamiyat to’g’risidagi ta’limotida yuksak g’oyalari, adolatli ijtimoiy munosabatlar qaror topgan davrda vujudga keladigan ma’naviy – axloqiy qadriyatlarning umumiy tizimini izohlab bergan va ayniqsa, hokimiyat boshqaruv tizimida ham xalqning milliy qadriyatlari uning eng asosiy omillaridan biri bo’lishi kerakligini ta’kidlab o’tgan<sup>6</sup>.

Qadriyatlar mavzusini Abu Rayhon Beruniy ham chetlab o’tmagan. Uning fikricha, qadriyatlar vujudga kelishi ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog’langan<sup>7</sup>.

Qadriyatlar muammosi Abu Ali Ibn Sinoning ham diqqat markazida turgan. Ibn Sino insonda, yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi. Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi. Yaxshi xulq esa insonning eng oliy qadridir deya ta’kidlaydi<sup>8</sup>. Bundan tashqari, u, ma’naviy – axloqiy qadriyatlar ahamiyatiga ham katta e’tibor bergan. U, odamning qadri boshqalar bilan hamkorligi, yaxshi ahloqiy fazilatlarga ega bo’lishga intilishi, donoligi, boshqalarga yaxshilik qila olishidadir, – deya ta’kidlab o’tgan.

Yurtimiz madaniyati va ma’naviyatida o’chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir, shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy o’zining asarlarida qadriyatlar masalasiga katta e’tibor bergan. Navoiyning odil jamiyat to’g’risidagi qarashlarida umumijtimoiy qadriyatlar tizimi, komil inson ta’limotida esa eng yetuk inson qiyofasiga xos shaxsiy qadriyatlar tizimi ta’riflangan. Bunda ikki qadriyatlar tizimining aloqadorligi yaqqol ko’rinib turadi<sup>9</sup>. Mutafakkirning ma’naviy qadriyatlar to’g’risidagi g’oyalari bugungi mustaqillik sharoitida ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga jadid taraqqiyparvar ulamolari asriy milliy qadriyatlar hamda mahalliy aholining mintalitetiga xos bo’lgan axloq – odob me’yorlarining himoyachisi bo’lib, o’zbek xalqining qadriyatlarini yanada boyitish yo’lida salmoqli ishlarni amalga oshirishgan. Xususan, ma’rifatparvar Cho’lponning quyidagi so’zlari fikrimizning dalilidir: “Ey qarindoshlar, sizlardan katta iltimosimiz shuldurki, Ovro’paning mo’dosidan, shishasidan, buzuq axloqidan na’muna olmasdan va bunlarga bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm, fan, hunar, sanoatga o’xshashlik madaniyatlardan namuna olib, bul jihatdan taqlid qilmog’imiz

<sup>5</sup> Кант И. Сочинения в шести томах. Т.4. Часть 1. – М.: Мысл, 1965. – С. 269

<sup>6</sup> Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). –Т.: Файласуфлар жамияти нашриёти. 2004. –Б.9  
Ўша жойда. Б.9

Абу Али Ибн Сино. Тиб қонунлари. 1 китоб. – Т.: Мерос, 1993. –Б.5.

<sup>9</sup> Ўрта Осиё халқлари хурфикрилиги тарихидан. –Т.: Фан, 1990.-Б.104.

lozimdur. Ovro'paning mo'dosi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bevatan, asir – qul qiladur. Bundan saqlaningiz<sup>10</sup>

Afsuski, bolsheviklar tomonidan boshlagan siyosiy jarayonlar bu avlodning boy merosini o'z domiga tortdi, ularning taqdiri ayanchli kechdi va ta'qiqlab qo'yildi. Bugungi kunda shu narsani ochiqchasiga tan olishimiz kerakki, yani, Prezidentimiz ta'biri bilan, tanqidiy ruhda oladigan bo'lsak, qadim avlodlar ardoqlagan va buyuk ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib qolgan sharqona, moddiy va ma'naviy qadriyatlarimizning 130 yil sarobga aylantirish, millatni milliyligidan judo qilish uchun qilingan urinishlarning oqibatlari hali – hanuzgacha sezilib qolmoqda.

“Qadriyat” iborasi faqatgina mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng keng qo'llanila boshlandi. Sobiq Ittifoq davrida bu termin muomalada deyarli uchramas edi, uni o'zbekcha lug'at manbalaridan chiqarishga harakat qilingan edi. Bunga dalil sifatida 1959 yil Moskvada “Xorijiy va milliy lug'atlar davlat nashriyoti” tomonidan chop etilgan va 40 mingdan ortiq so'zdan iborat “O'zbekcha – ruscha lug'at”ga ham, yoki O'z SE bosh redaksiyasi chiqargan va 50 ming so'zni o'z ichiga olgan “O'zbekcha – ruscha lug'at”ga ham “qadriyat”, “milliy tiklanish”, “milliy ong”, “milliy iftixor” kabi iboralarning kiritilmaganini keltirish mumkin<sup>11</sup>.

Shuningdek, ushbu terminlar 1981 yilda Moskvadagi “Russkiy yazyk” nashriyoti tomonidan chop etilgan va 60 ming so'zni qamrab olgan ikki jildlik “O'zbek tilining izohli lug'ati”da ham uchramaydi. Boshqa ruscha – o'zbekcha lug'atlarda ham “qadriyat” so'zi qo'llanilmagan. Jumladan, 1976 yilda “Fan” nashriyotida chop etilgan “Ijtimoiy – siyosiy terminlar lug'ati”da “sennost” so'zining to'rtta ma'nosi lug'at tarzida berilgani, lekin, ularning birortasida “qadriyat” ma'nosi o'z ifodasini topmagan<sup>12</sup>

Mustaqillik sharofati bilangina qadriyatlarni o'rganish, tadqiq etish, ular to'g'risida mushohada yuritish va xolis fikr bildirishga sharoit yaratildi. Negaki, qadriyatlar mustaqillikni mustahkamlaydigan ma'naviy omildir. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zbekona milliy qadriyatlarni asrab – avaylash, ularni kelajak avlodga yetkazish xususida fikr bildirar ekan, “qadriyat” so'zining ma'nosini ochib beradi: “Biz tarix sinovlaridan o'tgan, milliy manfaatlarimiz, bugungi va ertangi orzu – intilishlarimizga, taraqqiyot talablariga to'la javob beradigan, yillar o'tgani sari qadri ortib boradigan g'oya va tushunchalarni qadriyat deb bilamiz”<sup>13</sup>.

Istiqloq tufayli 1998 yilda Mustaqillik ilmiy – ommabop lug'ati chop etilib, bu tushunchalarning mohiyatini ochib berishga muvaffaq bo'lindi. Demak, “Qadriyat” atamasi bizga arabcha “qadr” so'zidan kirib kelgan bo'lib, bugungi kunda bu tushuncha “borliq va jamiyatdagi biror – bir narsa va hodisaning kishilar o'rtasidagi, o'zaro ijtimoiy munosabatlardagi tutgan muhim ahamiyatini ifoda etishi uchun qo'llanilmoqda”<sup>14</sup>.

Bundan tashqari, qadriyat tushunchasining ta'riflariga ko'pgina ilmiy adabiyotlarda turli xil yondashuvlari mavjud. Ayrimlariga to'htalib o'tsak, maqsadga muvofiq bo'lib, qadriyat tushunchasini yanada kengroq tahlil qilishimizda nazariy yordam beradi, albatta. Masalan,

<sup>10</sup> М. Бехбудий меросининг миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти (Б.Насанов ва Н.Каримов таҳрири остида). Илмий мақолалар тўплами. Т.: 2014. –Б.90.

<sup>11</sup> Одиқориев Х.Т. Якубов Ш.У.Миллий ҳуқуқий тизим ва ҳуқуқий қадриятлар.Т.: ЎЗР ИИВ Академияси.2010. – Б.117.

Туленов Ж. Қадриятлар фалсафаси. Т.: 1998. –Б.8-9.

Каримов И.А. Юксак маънавият- энгилмас куч.Т.: Маънавият. 2008.Б.82.

Мустақиллик изохли илмий – оммабоп луғат. Т.: Шарқ, 1998. –Б.279.

“Falsafa ensiklopedik lug’ati”da qadriyat tushunchasi quyidagicha tavsiflanadi: “Qadriyat voqelikdagi muayyan hodisalarning umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy – axloqiy, madaniy – ma’naviy ahamiyatini ko’rsatish uchun qo’llanadigan falsafiy – sotsiologik va aksiologik tushunchadir<sup>15</sup>.

“Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o’rtasida obro’ga, e’tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma’naviy boyliklar majmuasi”<sup>16</sup>.

B.Ziyomhammadov o’zining “Komillikka eltuvchi kitob”<sup>17</sup> asarida “Qadriyat” so’ziga quyidagicha ta’rif beradi: “Kishini qurshab turgan cheksiz ko’p narsa va hodisalar, shu jumladan, milliy ma’naviyat ichidan ham, muayyan shaxs yoki ijtimoiy guruh, yo, konkret bir millat, yoxud butun insoniyat uchun alohida ahamiyatga, qadrga ega bo’lganlarini qadriyat deyiladi.

“Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo’lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari, hodisalari majmuini tushunmog’imiz lozim”<sup>18</sup>. – degan ta’riflar berilgan. Bu esa, o’z navbatida, qadriyatlarining ahamiyatini ko’rsatmoqda.

Professor Q.Nazarov esa, qadriyat tushunchasini ilmiy tahlil qilib, quyidagi hulosaga keladi. Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy – axloqiy, madaniy – ma’naviy ahamiyatini ko’rsatish uchun qo’llanadigan falsafiy – sotsiologik va aksiologik tushuncha<sup>19</sup>, – deb hisoblaydi.

Yana bir mutaxassis N.Berdalievning e’tirof etishicha, “Qadriyat – jamiyat, millat, xalq va ijtimoiy guruhlarning manfaati uchun xizmat qiladigan, ularning istiqboliga asos bo’ladigan, taraqqiyot va rivojlanishga hissa qo’sha oladigan moddiy va ma’naviy boyliklarning ahamiyatini yorqin ifodalaydigan tushunchadir.

Bundan tashqari, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo’lgan barcha narsalar, masalan: erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go’zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana, urf – odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi<sup>20</sup>. Ijtimoiy jarayonlar ta’sirida kishilarning qadriyatlar to’g’risidagi qarashlari o’zgarib boradi. Tarixiy zaruriyatga qarab goh u, goh bu qadriyatlar ijtimoiy taraqqiyotning oldingi safiga chiqadi. Masalan: yurtni yov bosganida – ozodlik, imperiya hukmronligi nihoyasida – istiklol, urush davrida – tinchlik, tutqunlikda – erkinlik, kasal yoki bemorlikda – sihat – salomatlikning qadri oshadi.

Shuni alohida ta’kidlab o’tishimiz kerak, qadriyat bilan urf – odatlarni o’zaro aralishtirib yubormaslik joiz. Millatning tarixiy boyligi bo’lgan, ajdodlardan avlodlarga me’ros sifatida kelayotgan juda ko’p urf – odatlarimiz mavjud, lekin ularni biz qadriyatlar qatoriga qo’sha olmaymiz. Zero, “Qadriyat kategoriyasini, urf – odat va an’ana tushunchalaridan farqlashimiz lozim, deydi – akademik E.Yusupov. Chunki, urf – odat va an’analar orasida jamiyatdagi tinchlik va barqarorlikka, umuman taraqqiyotga putur yetkazuvchilar ham bor. Jumladan, mutassiblik, boqimandalik, beparvolik, befarqlik va boshqalar. “Qadriyat” deganda xalq

<sup>15</sup> Фалсафа энциклопедик луғат. Қадрият. –Т.:“Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010. –Б.326.

<sup>16</sup> Мустақиллик изоҳли илмий-оммабоп луғати. (А. Жалолов ва Қ.Хонназаров умумий таҳрири остида). – Т; Шарқ, 1998, Б. 279

<sup>17</sup> Зиёмуҳаммадов Б. Комилликка элтувчи китоб. – Т; “TURON-IQBOL” нашриёти, 2006. Б.73.

<sup>18</sup> Қадриятлар ва ижтимоий тараққиёт (илмий ишлар тўплами). –Т; “Ўзбекистон”, 1997. –Б.198.

<sup>19</sup> Назаров Қ. Қадриятлар тизимининг барқарорлиги ва ўзгаришлари. –Т.: Шарқ, 1992. –Б.105.

<sup>20</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Қ. –Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 2002.Б.12

qadrlaydigan, hurmat qiladigan va ezozlaydigan, yuksalishga, taraqqiyotga hamda farovonlikka yo'naltirilgan ma'naviy boyliklarni tushunishimiz lozim<sup>21</sup>.

"Qadriyatlar", – deydi N.Nenovski, – "insonlar ehtiyojlarini kondiruvchi predmetlar, hodisalar va ularning xususiyatlaridir. Insoniyatga nisbatan baholanmagan buyum va hodisalar hech qanday qadr – qimmatga ega bo'lmaydi. Qadriyatlar insonga xizmat qiluvchi ne'matlardir"<sup>22</sup>.

Yuqoridagi olimlarning keltirib o'tilgan fikr mulohazalaridan kelib chiqib shuni aytishi mumkinki, "qadriyat" deganimiz beqiyos kuch bo'lib, unda har bir millatning o'ziga hos tomonlari va fe'l – atvori, milliy mentaliteti, donishmandligi, milliy g'ururi, ma'naviy – axloqiy va diniy qiyofasi ham o'z aksini topadi. Boshqacha ifodalansa, millat madaniyati, urf – odati, an'analari, mehr – oqibati, turmush tarzi, kuy – qo'shik, raqslari va milliy libosi, milliy tarbiyaning barcha qirralari har qanday xalqning o'ziga hos qadriyatlarida ham namoyon bo'ladi. Bundan tashqari qadriyat deganda hech qanday bir rasmiy xujjatlarda va qonun – qoidalarda aks etmagan bo'lsada, lekin unga barcha xalqlar birdek amal qiladigan, insonlarning qon – qoniga singib ketgan an'analarni tushunmoq lozim.

Yuqorida bayon etilgan fikr – mulohazalar shuni ko'rsatadiki, har bir xalqning o'ziga xos qadriyatlar silsilasi mavjud bo'lib, u xalqning ko'zgusi hisoblanadi. Mustaqillik esa, – bugungi davrning eng asosiy qadriyatidir. Zotan, mustaqil bo'lmagan davlatning qadriyatlar tizimi ham hech qachon to'kis va haqqoniy bo'lmasligi tabiiy, albatta. Aynan Istiqlol sharofati bilan qadr va qadriyat tushunchalari mazmunan boyitildi. Jumladan, jamiyat hayotida hamda fuqarolarimizning ongu – shuurida yangicha tafakkur, dunyoqarash va qadrlash me'zonlari shakllandi. Natijada, avvalgi, boqimandalik, beparvolik, befarqlik, mutassiblik, iqtisodiy tanglik, halol mehnat qilib, farovon hayoti uchun boylik ortira olmaslik va yana boshqa juda ko'plab salbiy illatlar batamom jamiyat, inson hayoti va faoliyatidan chiqarib tashlanib, uning o'rniga, o'tda yonmas, suvda cho'kmas, tarixiy taraqqiyot silsilalarida toblanib, har qanday taxqiru – zug'mga bardosh berib kelgan azaliy va umrboqiy qadriyatlarimiz qayta tiklanib, va yana, yangidan – yangi qadriyatlar shakllana boshlandi.

Chunonchi, mustaqillik sari tashlana boshlangan mardonavor qadamlar o'z samarasini berdi. Ya'ni 1989 yilning 21 oktyabrida xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo'lmish ona tilimiz o'zining qonuniy maqomiga ega bo'ldi. Bu – bebaho qadriyatlarimiz tiklanishi yo'lidagi dastlabki jasoratli qadamlardan biri edi. Natijada, o'zligimizni angladik, insoniy qadrimizni, urf – odat va qadriyatlarimizni, muqaddas islom dinimizni, buyuk ajdodlarimiz, aziz avliyo va allomalarimizning tabarruk nomlari va merosini, g'urur va iftixorimizni tikladik. "Ramazon hayit", "Qurbon hayit", Navro'z kabi bayramlarimiz dam olish kunlari sifatida qayta tiklangani ham katta ijtimoiy voqea bo'ldi. Hususiy mulk, mulk daxlsizligi, tadbirkorlik va yana boshqa ko'plab inson faoliyati va erkinligi, ozodligi, so'z erkinligi kabi masalalar milliy qonunchiligimizda e'tirof etildi.

Allohga shukurlar bo'lsinki, Mustaqillik sharofati bilan milliy, axloqiy va diniy qadriyatlarimiz qayta tiklandi, mo'min – musulmonlarning orzu – umidlari amalga oshdi. Mustabid tuzum davrida O'zbekistonda bor – yo'g'i 89 ta masjid cheklangan, ta'qib va tayziq sharoitda faoliyat yuritgan bo'lsa, bugungi kunga kelib esa Respublikamizda 2066 ta (2019 yil bo'yicha) masjid musulmonlar uchun xizmat qilmoqda. Har yili mamlakatimizda bir necha yangi masjidlar barpo etilmoqda, yuzlab jomelar qayta ta'mirlanmoqda. Bu kabi muhim tarixiy qarorlar

<sup>21</sup> Юсупов Э. Маънавий қадриятлар ва уларнинг тарбиявий аҳамити. Т.: 2003. –Б.29.

<sup>22</sup> Қаранг: Нено Невоски. Право и ценности/Под ред. В.Д.Зоркина. 1987. – С. 210.

millatimizning asriy orzu – umidlarini ro'yobga chiqishi, milliy qadriyatlarimiz tiklanishi yo'lidagi ota – bobolarimiz va vatanparvar, mard, jasur hamda soddadil mehnatkash xalqimizning ezgu sa'y – harakatlari natijasidir desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, qadriyatlarimizning barcha turlari insoning farovon hayot kechirishi, erkin yashashi, ma'naviy – ahloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan asosiy vositalar hisoblanadi. Shuning uchun ham qadriyatlarni avaylab – asrash, ularni qo'riqlash, saqlash, yuksaltirish inson hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

So'zni yakunlar ekanmiz, qadr va qadrlash tuyg'usiga oid to'rt qator ibratli hikoyani keltirib o'tishni joiz, deb bildim.

*Bir odam kechagi kunlari bir burda nonga zor edi. Bugun esa u juda boy, judayam boy, boshqalarning bir haftalik maoshi uning bir martalik tushlik puli, lekin u restorandan chiqib ketishida dasturxonda qolgan bir burda nonni cho'ntagiga solib ketardi. Bu pulning qadri emas, balki o'sha bir burda nonning qadridir, Yaratgan bergan rizqning qadridir*

Shunday ekan, shukur qilishlik ham har bir millat va dinga xos eng oliy qadriyatdir. Demak, mustaqillikni, tinchlikni, osoyishtalikni va farovon hayotimizni qadriga yetib, har bir inson, har bir fuqaro o'z qalbida chuqur his qilib, ro'yobini esa vatan ravnaqi, yurt tinchligi va jamiyatimizning ma'naviy – axloqiy qiyofasi uchun qilayotgan savob hamda xayrli ishlarida ko'rsatib berish lozim. Binobarin, qadriyatlar jamiyatimizning boyligi, bizning milliy iftixorimizdir. Ularni asrab – avaylash va muxofaza qilish barchamizning burchimizdir.

**Xulosa:** Qadriyat tushunchasi, uning mohiyati va klassifikatsiyalash usullari inson va jamiyat hayotining muhim elementlaridan biridir. Ushbu tadqiqot qadriyatlarining falsafiy, tarixiy va ijtimoiy jihatlarini o'rganish orqali ularning jamiyat va shaxsiy hayotdagi o'rnini chuqurroq anglashga yordam beradi. Kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar qadriyatlarining turlarini va ularning jamiyatdagi o'rnini yanada kengroq tahlil qilish imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.G'arb falsafasi (Q.Nazarov tahriri ostida). T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti "sharq" 2004
- 2.Arastu. Axloqi kabir. (Tarj. Zohir A'lam va Urfon Otajon). –T.: Yangi asr avlodi,2015
- 3.Фарб фалсафаси (Қ.Назаров таҳрири остида). Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти "шарқ" 2004.
4. Локк Дж. Сочинения в трех томах. Т.3. – М.: Мысл, 1988.
- 5.Кант И. Сочинения в шести томах. Т.4. Част 1. – М.: Мысл, 1965.
- 6.Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). –Т.: Файласуфлар жамияти нашриёти. 2004. –Б.9
- 7.Абу Али Ибн Сино. Тиб қонунлари. 1 китоб. – Т.: Мерос, 1993.
- 8.Ўрта Осиё халқлари хурфикрлиги тарихидан. –Т.: Фан, 1990.
- 9.М. Бейбудий меросининг миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти (Б.Насанов ва Н.Каримов таҳрири остида). Илмий мақолалар тўплами. Т.: 2014.
- 10.Одилқориев Х.Т. Якубов Ш.У.Миллий ҳуқуқий тизим ва ҳуқуқий қадриятлар.Т.: ЎЗР ИИВ Академияси.2010.
- 11.Туленов Ж. Қадриятлар фалсафаси. Т.: 1998.
- 12.Каримов И.А. Юксак маънавият- енгилмас куч.Т.: Маънавият. 2008.
- 13.Мустақиллик изоҳли илмий – оммабоп луғат. Т.: Шарқ, 1998.

- 14.Фалсафа энциклопедик луғат. Қадрият. -Т.:“Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010.
- 15.Мустақиллик изоҳли илмий-оммабоп луғати. (А. Жалолов ва Қ.Хонназаров умумий таҳрири остида). – Т; Шарқ, 1998,
- 16.Зиёмуҳаммадов Б. Комилликка элтувчи китоб. – Т; “TURON-IQBOL” нашриёти, 2006.
- 17.Қадриятлар ва ижтимоий тараққиёт (илмий ишлар тўплами). –Т; “Ўзбекистон”, 1997.
- 18.Назаров Қ. Қадриятлар тизимининг барқарорлиги ва ўзгаришлари.-Т.: Шарқ, 1992.
- 19.Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Қ. –Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 2002.
- 20.Юсупов Э. Маънавий қадриятлар ва уларнинг тарбиявий аҳамити. Т.: 2003.
- 21.Қаранг: Нено Невоски. Право и ценности/Под ред. В.Д.Зоркина. 1987.

